

**YOSHLARDA IJTIMOIIY FAOLLIK VA LIDERLIKNI
RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

M.Normatova

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlarda ijtimoiy faollik va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qiladi. Yoshlarning jamiyatdagi o'rni va roli, ularning faolligi va liderlik sifatleri yoshlarning shaxsiy rivojlanishi hamda mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Maqolada ijtimoiy muhit, ta'lim, oila, mentorlik va boshqa omillar yoshlarning yetakchilik salohiyatini oshirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ijtimoiy faollik, liderlik, rivojlanish, ijtimoiy muhit, ta'lim, oila.

Bugungi kunda yoshlar jamiyatning eng faollari va o'zgarishlarning tashabbuskorlari sifatida e'tirof etilmoqda. Ularning ijtimoiy faolligi va liderlik qobiliyatlari jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois, yoshlarda ijtimoiy faollik va liderlikni rivojlantirish omillarini aniqlash va ularni samarali qo'llash zarurati ortib bormoqda.

Yoshlarga ijtimoiy faollik va liderlik sifatlarini shakllantirishda ularning atrofidagi muhit muhim rol o'ynaydi. Do'stlar, o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari, yoshlar markazlari va ijtimoiy guruhlar yoshlarning o'zini ifoda etishiga, yangi g'oyalarni ilgari surishiga turtki beradi.

Yoshlarda ijtimoiy faollik va liderlikni rivojlantirishda ta'lim tizimi va liderlikning ahamiyati kata.

Ta'lim muassasalari yoshlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularni ijtimoiy faol va lider sifatida shakllantirish uchun platforma yaratadi. Ta'limdagi guruh ishlari, loyiha faoliyati, debatlar va boshqa interaktiv metodlar yoshlarning yetakchilik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Oila va tarbiya muhitining ham ijtimoiy faollik va liderlikni rivojlantirishda

ahamiyati kata. Oila – yoshlarning birinchi ijtimoiy muhitidir. Oila tarbiyasi, ota-ona va qarindoshlarning qo'llab-quvvatlashi yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, mas'uliyat hissini shakllantiradi va natijada liderlik sifatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Tajribali shaxslarning (mentorlar) yoshlarni yo'naltirishi va qo'llab-quvvatlashi liderlik ko'nikmalarini tezroq rivojlantirishga yordam beradi. Mentorlik tizimi yoshlar uchun motivatsiya manbai bo'lib, ular uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Yoshlarning jamoat ishlarida, ijtimoiy loyihalarda, volontyorlik faoliyatida ishtirok etishi ularning yetakchilik qobiliyatlarini amaliyotda rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bu faoliyat ijtimoiy mas'uliyatni anglashga yordam beradi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalari yoshlarning o'z fikrini erkin ifoda etishi, yangi g'oyalarni targ'ib qilishi va boshqalar bilan hamkorlik qilishida muhim vosita hisoblanadi. Bu vositalar yoshlar liderligini shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Yoshlarda ichki motivatsiyani oshirish, maqsadlarni aniqlash va ularga erishish uchun reja tuzish liderlik sifatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shaxsiy rivojlanish kurslari, treninglar va seminarlar yoshlarning o'z ustida ishlashiga yordam beradi.

Yoshlarda ijtimoiy faollik va liderlik sifatlarini rivojlantirish ko'p omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ijtimoiy muhit, ta'lim, oila, mentorlik tizimi, amaliy faoliyat va zamonaviy kommunikatsiya vositalari bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillarni uyg'unlashtirish va samarali qo'llash yoshlarning yetakchilik salohiyatini shakllantirishga, jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2018.1-жилд. –529-бет.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat

ilmiy nashriyoti. 2013. 497-b.

3. Chermers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1

3. “Ўзбекистон ёшлари – 2030” концепцияси.

4. Ўзбекистон Ёшлар иттифоқининг мақсад ва вазифалари. Электрон ресурс: <https://yoshlarittifoqi.uz/uz/menu/maqsad-va-vazifalar>

5. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. –Т.: Янги авлод, 2013. 294-б.

6. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS.

7. Xolnazarova, D. M. (2024). OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 264-266.